


МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА О'ЗБЕКИСТОННИНГ БҮЙҮК СИЙМОЛАРИНИ ТАНИШТИРИШ



To'rayeva Nigora Latipovna
Buxoro viloyati Jondor tuman
11-son MTT katta tarbiyachisi

Annotasiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mактабгача та'лим ташкilotlarda buyuk siymolarni tanishtirishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk siymolar, qomusiy olimlar, fan, ilm, adabiyot, milliy g'urur, ma'naviy meros, insonparvarlik, vatanparvarlik.

Har bir davrda yuz beradigan voqeysalar to'g'risida tarbiyachinining bolalarga mohirona hikoya qilib berishi vatanparvarlikni tarbiyalashada muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

Ushbu omillarning pedagogik jihatni ularning o'zlariga xos xususiyatlari hi sobga olingen taqdirda, milliy g'urur tuyg'ularini his etishda va uning tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarda milliy tuyg'uni shakllantirish tizimini o'rganishda, ishlab chiqishda har bir mashg'ulot, tarbiyaviy tadbirlar, to'garaklar ular ongida milliy ikning chizgilari (manzarasi) haqidagi tasavvurini o'zgartirish, shaxsiy hayot, jamiyatda o'z o'rnni topishga erishish, milliylikning tarbiyaviy mohiyatini anglab yetish malakalarini shakllantirish turli faoliyatning natijalarini oldindan ko'ra bilishga o'rgatish, tabiat va jamiyat haqida ilmiy bilim bilan qurollantirish kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida milliy tuyg'uni hakllantirish maqsadi va vazifalarini ijobjiy hal etishda ularning tarbiyasiga, tavsifiga xos milliy muhit yaratish va yuqoridagi barcha omillarga tayanish lozim. Chunki tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatning samaradorligini oshiruvchi, ularning talab va ehtiyojlarini qondiruvchi muhit zarurdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy muhitning o'ziga xos mazmunga ega bo'lishi davr taqozosidir. Bu mazmun zamirida bolalarda milliy g'ururni shakllantirish yotadi: umuminsoniy va milliy qadriyatlar; urf-odat va an'analar, xalq donishmandligi durdonalari negizini tashkil etgan sharqona tarbiyaning asosiy sifatlari; insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, sahovat, iymon-e'tiqod va shu kabilar.

MTTda buyuk siymolardan: Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mirzo Bobur, Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi kabilar tanishtiriladi.

Buyuk siymolar bilan tanishtirishdan maqsad: bolalarga ota-bobolarini tanisinlar, ulardan qolgan merosdan bahramand bo'lsinlar, ota-bobolardan

faxrlansinlar. Bolalarga vatan tuyg‘usini ota-bobolarimiz ibrati bilan singdirish. Masalan, Jaloliddin Manguberdi Vatanni tashqi dushmanidan himoya qilgan va jonini fido etgan, Amir Temur o‘z xalqi, Vatanning osoyishtaligi, uning milliy g‘ururi yo‘lida jang qilgan, Bobur o‘z Vatanidan yiroqda bo‘lishiga qaramay, o‘z xalqini, Vatanini e’zozlab, ularni qumsab yashagan. Navoiy, Nodira, Uvaysiy kabi mutafakkirlarimizning insoniyligi, buyukligi, Vatanga hurmati, mehr-muhabbatini ifodalovchi qator rivoyatlar mavjud.

Xalq, haqiqat va nafosat o‘lmaydi, ularni ardoqlagan, kuylagan ulug‘lar ham mangudir. Bobokalonlarimiz Navoiy va Bobur ham o‘z asarlari orqali barhayotdir. Ular quyosh yang‘lig‘ so‘nmas sehrli badiiyat yaratdi. Bu ikki zamondosh shoir o‘z asarlarida yuksak insoniy tuyg‘ularni tarannum etdi. Mana shunday o‘lmas tuyg‘ulardan biri — bu Vatan tuyg‘usidir. Har ikki ijodkor lirik she’rlarida ham, epik asarlarida ham Vatan mavzusini mahorat bilan ulug‘ladi. Hatto Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” singari ilmiy asari ham yuksak vatanparvarlik ruhida yaratildi

“Navoiyxonlik” va “Boburxonlik” oyligini o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar rejasini tuzishda faqat shoirlarning tavallud kunlari emas, balki “Navoiyxonlik” va “Boburxonlik” oyligi davomida amalga oshiriladigan tadbirlar nazarda tutilishi lozim. Navoiy va Bobur hayoti, ijodi va faoliyatini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlar reja asosida muntazam yo‘lga qo‘yilishi kerak. Navoiy va Boburning nurli siymolari, hikmatli so‘zlari, ularning ijodi va faoliyati bilan bog‘liq ko‘rgazmalar tashkil qilinishi talab etiladi

Bolalarni buyuk allomalar bilan tanishtirish. Bobolarimizni yaratgan asarlarini bizga qoldirgan ma’naviy merosini qadrlashni o’rgatish va mazmun mohiyatini tushuntirish. Buyuk allomalarimiz asarlaridagi odamiylik, vatanparvarlik,adolat, muhabbat, do’stlik, vafo, halollik va mardlik kabi go’zal fazilatlarni bolajonlar ongiga singdirish. Bolalarni zukkolik, tez fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, xotira va tafakkurini rivojlantirish, buyuk allomalarimizga bo’lgan hurmatni oshirish.

Xulosa

Har bir maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari insonparvarlik va vatanparvarlik qoidalariga rioya qilgan holda, bu faoliyat insonni har tomonlama himoya qilishga, uni ulug‘lashga, milliy g‘ururlanishga qaratilishi lozim. Asl vatanparvar bo’lish uchun insonga juda katta mas’uliyatli ma’naviy-axloqiy vazifalar yuklanadi.

Bolalarda kattalarga hurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘ulari, xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar tarbiyalanadi. Shu tuyg‘ular bilan tarbiyalashda buyuk siymolarni tanishtirish, ular qoldirgan merosni o‘rganish, ularning hayotini ibrat sifatida ko’rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha tarbiya yoshdagи bolalarni milliy ruhda, milliy g‘urur ruhida

tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat va do'stona his-tuyg'ular o'yg'otish, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (O'quv qo'llanma). T.;
2. O'zbekiston Respublikasi entseklopediyasi.-T., Fan, 2009
- 3.. A. Zununov. Pedagogika tarixi. Darslik- 2002.
4. Babanskiy YU.K va boshqalar."Pedagogika", Moskva 1998;
5. V.I.Turchenko. Doshkolnaya pedagogika Moskva 2013
- 6.S.A. Kozlova.T.A.Kulikova. Doshkolnaya pedagogika. Moskva 2000
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
9. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalarga qo'yildigan "Davlat talablari". 2018-yil 3-iyul, ro'yxat raqami 3032.
10. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining 2018-yil 7-iyulda 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.